

**GADOYEV SO'HROB
JUMAKULOVICH**

2024

**MOLIYA FANIDAN
KURS ISHINI BAJARISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Termiz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

«MOLIYA» KAFEDRASI

S. J. GADOYEV

**MOLIYA FANIDAN
KURS ISHINI BAJARISH BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

(5230600 - Moliya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun)

Termiz - 2024

Moliya fanidan kurs ishini bajarish bo'yicha Uslubiy qo'llanma (5230600 – Moliya ta'lim yo'nalishi talabalari uchun). TerDU, 2022, 56 bet.

Mazkur Uslubiy qo'llanma Moliya ta'lim yo'nalishi III kurs talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalar tomonidan Moliya fanidan kurs ishini tayyorlash hamda himoya qilish jarayoni ko'rsatilgan.

Uslubiy qo'llanma Termiz davlat universiteti "Moliya" kafedrasining 2024 yil «26» iyundagi 23-sonli majlisida muhokama qilingan va tavsiya etilgan.

Universitet o'quv-uslubiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

2024 yil «__» iyun ____ - son majlis bayoni.

Kengash raisi:

dots. R.To'rayev

Taqrizchilar:

dots. A.Q.Mirzayev

dots. B.Q.Qodirov

KIRISH

Moliya fani moliyaviy resurslar fondlarini shakllantirish hamda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish maqsadlariga erishish, ulardan samarali foydalanish, shuningdek mamlakat moliya tizimini amal qilish qonuniyatlarini o'rganish kabi masalalarni qamrab oladi. O'z navbatida mamlakat moliya tizimining rivojlanish qonuniyatlarini bilish va ularning amal qilishiga ongli munosabatda bo'lishda, mamlakatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish jarayonlarining mohiyatini tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi.

Moliya jamiyat iqtisodiyotidagi samaradorlikni rag'batlantirish, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanishi bilan dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida «ta'lim va o'qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, oliy ta'lim muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich ko'paytirish va ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil etish»¹ vazifalari qo'yilganligi mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim berish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ta'minlash dolzarb masala ekanligidan dalolat beradi.

Moliya fani bakalavriatning 5230600 - Moliya ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan fanlardan biri hisoblanadi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishida talabalar fanlar bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini, mavzular doirasida ularda shakllangan mustaqil fikr mulohazalarini bildirish hamda tanlagan mavzusi bo'yicha kelingan hamda

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. – № 6 (766). – 32-б.

nazariy jihatdan asoslangan xulosa va tavsiyalarini bayon etishi maqsadida kurs ishlarini yozishi va muvaffaqiyatli himoya qilishlari belgilangan. Jumladan, Davlat ta'lim standartlarida 3-kurs Moliya ta'limi yo'nalishi talabalari tomonidan kurs ishlari tayyorlanishi va maxsus tashkil etilgan komissiya a'zolari oldida himoya etishlari e'tirof etilgan. Talabalar tomonidan kurs ishlarini yozish va muvaffaqiyatli himoya qilish o'tilgan fanlardan egallagan bilim darajalarini namoyon etish shakllaridan biri hisoblanadi. Kurs ishini yozish davomida talabalar o'zlari egallagan nazariy va amaliy bilimlarini oshirish, tanlagan sohasi bo'yicha amaliyotda erishilayotgan tajribalar bilan tanishish, shuningdek bitiruv malakaviy ishlarini yozishga tayyorgarlik ko'rish uchun dastur amal bo'lib xizmat qilishi mumkin.

5230600 - Moliya bakalavriat ta'lim yo'nalishi Moliya fanidan kurs ishini talabalar tomonidan yozish va himoya qilishdan asosiy qo'zlangan maqsad quyidagidardan iboratdir:

- mamlakatda moliyaviy munosabat ishtirokchilari o'rtasida yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni o'rganish va bu boradagi muammolarni aniqlash uchun huquqiy-me'yoriy hujjatlarni, ilmiy va o'quv adabiyotlarini izlab topish va ularni o'qib, tahlil etish hamda mazkur adabiyotlarda mavzu doirasida keltirilgan ma'lumotlarni jamlab, ma'lumotlar bazasini shakllantira olish qobiliyatini talabada rivojlantirish;

- mavzu bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar bazasini tahlil etgan holda, ilmiy asoslangan xulosalarga kelish; talabani ma'lumotlar bilan mustaqil ishlay olish qobiliyatini kuchaytirish;

- mavzu doirasida yig'ilgan amaliy ma'lumotlarni tizimlashtirish va ularni tahlil qilish usullaridan foydalangan holda tadqiq eta olishini rivojlantirish;

- mavzu doirasida olib borilgan tahlillar davomida bugungi kunda sohada uchrayotgan muammolalarni aniqlash va ularni bartaraf etish yuzasidan talabaning shaxsiy fikr mulohazalarini shakllantirish;

- kurs ishini yozish davomida adabiyotlar bilan ishlash ko'nikmalarini mustahkamlash;

- talabada mavzu doirasida yig'ilgan ma'lumotlarni chizma, jadval va diagrammalar tarzida bayon etish va tahlilini amalga oshirish qobiliyatini mustahkamlash;

- talabani bitiruv malakaviy ishini sifatli bajarishga bosqichma-bosqich tayyorlash.

Talaba tomonidan kurs ishini yozish va maxsus belgilangan komissiya a'zolari oldida himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqich. Kafedra tomonidan tasdiqlangan va talabalar e'tiboriga havola etilgan ro'yxatdan talaba mustaqil ravishda o'zini qiziqtirgan va kelgusida mazkur mavzu doirasida bitiruv malakaviy ishini yozishni ko'zlagan mavzuni tanlaydi.

Ikkinchi bosqich. Mavzu bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot ma'lumotlari va me'yoriy huquqiy hujjatlar bilan yaqindan tanishadi hamda mavzu doirasida ma'lumotlar bankini shakllantiradi.

Uchinchi bosqich. Shakllantirilgan ma'lumotlar bazasidan kelib chiqib, kurs ishi mavzusining rejasini tuzadi hamda ilmiy rahbari bilan muhokama etadi. Muhokama natijasini yakunida reja ilmiy rahbar tomonidan tasdiqlanadi.

To'rtinchi bosqich. Tasdiqlangan rejaga muvofiq mavjud ma'lumotlar tizimlashtiriladi.

Beshinchi bosqich. Kurs ishi mavzusi bo'yicha taqdim etiladigan statistik ma'lumotlar tizimlashtiriladi hamda chizma, jadval yoki diagramma tarzida tahlil etilishga tayyorlanadi.

Oltinchi bosqich. Kurs ishi talaba tomonidan qo'lyozma tarzida yoziladi.

Yettinchi bosqich. Talaba tomonidan qo'lyozma tarzida yozilgan kurs ishi dastlabki tekshiruv uchun ilmiy rahbar e'tiboriga havola etiladi hamda ilmiy rahbar kurs ishida talaba tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklarni e'tirof etib, mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun kurs ishini talabaga qaytariladi.

Sakkizinchi bosqich. Kafedra tomonidan belgilangan talablar doirasida kurs ishi talaba tomonidan rasmiylashtiriladi hamda taqriz olish uchun ilmiy rahbarga taqdim etiladi.

To'qqizinchi bosqich. Ilmiy rahbar tomonidan ko'rsatilgan kamchiliklar talaba tomonidan bartaraf etiladi hamda kafedra tomonidan tashkil etilgan maxsus komissiya a'zolari oldida himoya qilinadi.

KURS ISHI MAVZUSINI TANLASH

Kafedra tomonidan tasdiqlangan va talabalar e'tiboriga havola etilgan ro'yxatdan talaba mustaqil ravishda o'zini qiziqtirgan va kelgusida mazkur mavzu doirasida bitiruv malakaviy ishini yozishni ko'zlagan mavzuni tanlaydi.

Talaba tomonidan kurs ishi mavzusini o'z qiziqishlaridan kelib chiqib, to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tanlangan mavzular bir xil bo'lmasligini ta'minlash va talabalar uchun tanlash imkoniyati yuqori bo'lishi uchun kafedra tomonidan tasdiqlangan mavzular ro'yxati kurs ishi yozishi ko'zda tutilgan talabalar soniga nisbatan ikki barobar ko'p bo'lishi lozim. Talabalar e'tiboriga havola etiladigan kurs ishi mavzulari ro'yxati har yili kafedra tomonidan dolzarb masalalarni yoritishga asos bo'ladigan mavzular bilan yangilanib borilishi hamda 1 oktyabrga qadar talabalar e'tiboriga havola etilishi lozim.

Talaba kurs ishi mavzusini tanlashda kafedra professor-o'qituvchilari bilan o'zaro fikr almashishi hamda o'zi uchun qiziqarli bo'lgan ma'lum bir dolzarb muammolarni ochib beradigan mavzuni mustaqil tanlash huquqiga ega. Bundan tashqari, talaba kafedra tomonidan taqdim etilgan mavzular ro'yxatida bo'lmagan ammo davr nuqtai-nazaridan iqtisodiy va moliyaviy muammolarni ochishda muhim ahamiyat kasb etgan qiziqarli mavzularni taklif qilishi ham mumkin. E'tirof etish lozimki, talaba tomonidan tanlangan mavzu kelgusida bitiruv malakaviy ishini bajarishda asos bo'lib xizmat qilishi lozim. Shuning uchun talaba tomonidan mavzu tanlanayotganda mazkur mavzu bo'yicha kelgusida birtiruv malakaviy ishini bajarish ham nazarda tutilishi lozimdir.

MAVZU BO'YICHA MA'LUMOTLAR BANKINI

SHAKLLANTIRISH

Talaba tomonidan kurs ishi mavzusi tanlangandan so'ng talaba mavzu bo'yicha o'quv va ilmiy adabiyotlar, davriy matbuot ma'lumotlari va me'yoriy- huquqiy

hujjatlar bilan yaqindan tanishadi hamda mavzu doirasida ma'lumotlar bankini shakllantiradi. Bunda talabaga tanlangan mavzu yoritilgan darslik, o'quv qo'llanmalarda, ilmiy-amaliy jurnallarda, ommaviy axborot vositalarida, me'yoriy-huquqiy hujjatlar va internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlar bilan yaqindan tanishish tavsiya qilinadi. Ma'lumotlar bankini shakllantirishda birinchi navbatda, Prezidentimizning mavzuga oid asarlari, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Hukumat qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'rganishdan, tahlil etishdan boshlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining moliya sohasiga oid qonunlar va maxsus me'yoriy hujjatlar to'plamidan foydalanish mumkin. Shuningdek, zarur ilmiy, nazariy va amaliy adabiyotlarni tayanch OTM elektron kutubxonalaridan topish mumkin.

Talaba tomonidan shakllantirilgan ma'lumotlar banki tahlil qilinadi hamda kurs ishini yozish davomida foydalaniladigan qismi alohida ajratib olinadi. Kurs ishi bo'yicha ma'lumotlar bankini shakllantirish davomida talabaning adabiyotlar bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalari yanada mustahkamlanadi. Chunki, mavzu bo'yicha kerakli axborotlarni izlash, ularni o'rganish va har bir ma'lumot bo'yicha o'z mulohazalarni bayon etish kelgusida talaba tomonidan bajariladigan bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalarini yozish jarayonida poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Talaba mavzu doirasida adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni o'zaro solishtira olishi, o'zining qarashlariga yaqinini ilmiy asoslashi hamda fikr mulohazalarini aniq va ravshan taqdim etishi maqsadga muvofiqdir. Keltirilgan fikrlar va statistik ma'lumotlarning manbasi kurs ishida to'liq, belgilangan talablar doirasida keltirilishi lozim.

Kurs ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kurs ishining "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilishi shart.

KURS ISHINI YOZISH TARTIBI

Talaba tomonidan tanlangan mavzu doirasidagi kurs ishining umumiy hajmi 35-40 varaqdan kam bo'lmasligi lozim. Ilovalar mazkur hajmga kirmaydi. Kurs ishining titul varag'i belgilangan shakl bo'yicha rasmiylashtiriladi (1-ilova). Kurs ishida

me'yoriy hujjatlar va orfografik qoidalar bo'yicha qabul qilingan shartli qisqartirishlar kiritishga ruxsat beriladi. Masalan: y.-yil, yy.yillar, m.s- ming so'm, mln. s. - million so'm, mak -maksimal va boshqalar. Lekin "Moliya" ta'lim yo'nalishi bo'yicha kurs ishi yozilar ekan moliyaviy, iqtisodiy terminlar va so'zlarda kamdan-kam holda qisqartma so'zlar ishlatiladi. Ushbu holatni inobatga olib, kurs ishida qisqartma so'zlarni kamroq ishlatish tavsiya etiladi. Shuningdek, kurs ishida ba'zi bir so'z birikmalari qayta-qayta kelishi ko'zda tutilsa, ushbu so'z birikmalarini birinchi yozilishida to'liq yozish va so'z birikmasi tugashi bilan qavs ochib, ushbu so'z birikmasining qisqartma ko'rinishlarini keltirish kerak. So'ng, ushbu so'z birikmasi qaytarilsa, qisqartma ko'rinishini yozish mumkin. Masalan, ochiq aktsiyadorlik jamiyati (OAJ), mas'uliyati cheklangan jamiyat (MChJ), qo'shma korxona (QK) va boshqalar.

Mundarija kurs ishi tuzilishini belgilab beruvchi birlamchi qism bo'lib, uning boshlanish qismida keltiriladi va kurs ishi tarkibidagi kirish, asosiy qism va savollar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, xulosa va takliflar hamda ilovalar ko'rsatiladi. Misol uchun talaba kafedra tomonidan taqdim etilgan ro'yxatdan "Davlat byudjeti daromadlari tarkibi tahlili va uni optimallashtirish yo'nalishlari" mavzusini tanladi. Tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishini qo'yidagi savollarni o'z ichiga olgan reja asosida yoritish mumkin:

Kurs ishi rejasi namunasi:

Kirish

- 1. Davlat byudjeti daromadlar tizimi va ularning tasniflanishi.*
- 2. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining amaldagi holati tahlili.*
- 3. Davlat byudjeti daromadlarini boshqarish va uni optimallashtirish yo'nalishlari.*

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

Tanlangan mavzu doirasida bajarilgan kurs ishining **Kirish qismi** - bu kurs ishining boshlang'ich qismi bo'lib, dastlab yurtimizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev rahbarliklarida amalga oshirilayotgan islohotlar, demokratik o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi. Ishning asosiy ma'nosini qisqacha bayon qilish uchun xizmat qiladi. Kurs ishining kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi, kurs ishining maqsadi va vazifalari, izlanish ob'ekti va predmeti to'liq asoslanadi. Shuningdek, kurs ishini yozish uchun asos bo'lgan amaliy ma'lumotlarning manbalari aks ettiriladi.

Kurs ishi mavzusining dolzarbligini ifodalashda talaba aynan qaysi sabablarga ko'ra mazkur mavzu doirasida ilmiy izlanishlarni olib borish lozimligini, o'zining mulohaza yurita olish qobiliyati hamda to'plagan ma'lumotlar bazasidan foydalangan holda bayon etishi lozim. Fikrini ishonarli va aniq ifodalash uchun mavzu doirasida etakchi olim va mutaxassislarning fikrlarini keltirish orqali mustahkamlashi mumkin. Mavzu dolzarbligini sifatli keltirilishi talabaning salohiyati, ma'lumotlar bazasi bilan qay darajada ishlay olganligi, mavzuning ijtimoiy iqtisodiy mohiyatini chuqur anglab etganligi bilan baholanadi. Tanlangan kurs ishi mavzuning dolzarbligini asoslashda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalaridan mavzuga oid fikr mulohazalarni keltirilishi kurs ishi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kurs ishida tanlangan mavzu dolzarbligi bayon etilgan so'ng, kurs ishi doirasida olib borilgan tadqiqotning maqsadi hamda kurs ishi maqsadidan kelib chiqib vazifalar (3-5 ta vazifalar) belgilab olinadi. Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, vazifalar qo'yidagi yo'nalishlarda ifodalanishi mumkin: ma'lum bir masalani atroflicha o'rganish; nazariy jihatdan talqin qilish; mavzu doirasida ma'lumotlarni tahlil qilish; tahlil qilingan ma'lumotlarga tayangan holda mavzu doirasida ilmiy asoslangan xulosa va amaliy takliflar tizimini ishlab chiqish.

Misol uchun talaba tomonidan tanlangan "Davlat byudjeti daromadlari tarkibi tahlili va uni optimallashtirish yo'nalishlari" mavzusidagi kurs ishining kurs ishi mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari qo'yidagilar qilib belgilab olinishi mumkin:

Kurs ishi mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish, davlat va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish, makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash sharoitida respublikamizda davlat byudjeti va byudjet tizimi sohasida islohotlar naqadar muhimligi hozirgi kunning talabida o'z aksini topmoqda. Davlat byudjetining barqarorligi iqtisodiy o'sishning samaradorligiga, aholi turmush darajasining ortishiga va aholini ijtimoiy himoya darajasini belgilashi bilan muhimdir. Shunday ekan, Davlat byudjeti daromadlarining mamlakat moliya tizimida tutgan o'rni, ahamiyatini o'rganib, mazkur sohada yuzaga keladigan muammolar va ular ustida ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda dolzarbdir.

Kurs ishi mavzusining maqsadi - Davlat byudjeti daromadlari tarkibi tahlili va uni optimallashtirish yo'nalishlarini o'rganish, amaldagi holatini tadqiq etish hamda bu yuzasidan xulosalarni shakllantirish.

Kurs ishi mavzusining vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetining iqtisodiy mazmuni va ahamiyatini o'rganish;
- Davlat byudjeti daromadlarini boshqarishning davlat iqtisodiy tizimidagi ahamiyatini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari turlari va ularning tasniflanishini, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, xususiyatlari, nazariy va tashkiliy masalalarini davr talabiga mos ravishda yoritib berish;
- Mamlakatimizda davlat byudjeti daromadlarining amaldagi holatini tahlil qilish;
- Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida davlat byudjeti daromadlari tizimini optimallashtirish yo'nalishlarini ochib berish va ular bo'yicha asoslangan xulosalarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti kurs ishining muhim elementi ekanligi kirish qismida ifodalanadi.

Kurs ishi mavzusining obyekti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari hisoblanadi.

Kurs ishi mavzusining predmeti bo'lib, O'zbekiston Respublikasida davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish va uni optimallashtirish yo'nalishlarini o'rganish hisoblanadi.

Shuningdek, kirish qismida tadqiqotning uslubiy ko'rsatmasi muhim elementlardan biri bo'lib, u amaliy materiallarni tahlil qilishda va ishning asosiy maqsadini ochib berishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning talaba tanlagan mavzu bo'yicha olib borgan tadqiqotlarini ifodalashi lozim.

Talaba tomonidan tanlangan mavzu bo'yicha yozilgan kurs ishining kirish qismi ko'pi bilan 2-3 varaq hajmida bayon etish tavsiya etiladi.

Kurs ishining kirish qismidan so'ng, asosiy qism keladi. U bir nechta savollardan iborat bo'lib, tanlangan mavzuning asosiy mohiyatini batafsil ochib berishga xizmat qiladi.

Tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishining **birinchi savolida** mavzuning nazariy jihatlarini, mazmuni, mohiyati va bugungi kundagi ahamiyati batafsil yoritiladi. Bunda talaba tomonidan turli iqtisodiy maktablar vakillari bo'lgan iqtisodchi olimlar asarlarining qiyosiy tahlili amalga oshirilishi, davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalardan foydalanilishi, mavzuga oid asosiy darsliklar va o'quv ko'llanmalarida keltirilgan nazariy fikrlarning qiyosiy tahlili amalga oshirilishi mumkin. Talabaga mazkur savol bo'yicha fikr mulohazalarini ko'pi bilan 8-10 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Namuna

1. Davlat byudjeti daromadlari tizimi va ularning tasniflanishi talaba tomonidan bajarilgan kurs ishining mazkur savolida Davlat byudjeti daromadlari tizimi nazariy jihatdan o'rganilib, atroflicha talqin etiladi, shuningdek ularning tasniflanishi tadqiq etiladi.

Tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishining **ikkinchi savolida** mavzuga oid amaliy holat tahlilini amalga oshirish va tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli

xulosalarni ishlab chiqishdan iboratdir. Bunda jadvallar, diagrammalar, rasmlar shaklidagi amaliyot ma'lumotlaridan keng foydalanish, ularni batafsil tahlil etish talab etiladi.

Tahlil jarayonida davriy nashrlarda chop etilgan ilmiy maqolalarga, hukumat idoralarining rasmiy internet saytlarida keltirilgan ma'lumotlarga, talaba tomonidan malakaviy amaliyot davomida to'plangan amaliyot ma'lumotlariga tayanish tavsiya etiladi. Har bir jadval, diagramma va rasmlarning manbalari aniq ko'rsatilishi talab etiladi. Ushbu savolni ko'pi bilan 10-12 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Namuna

2. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining amaldagi holati tahlili

Talaba tomonidan bajarilgan kurs ishining mazkur savolida O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlarining joriy holati tahlili keltirilib, jadvallar, diagrammalar, rasmlar shaklida yanada mustahkamlanadi. Shuningdek, so'nggi yillar uchun ko'rsatkichlar dinamikasi tahlil etiladi. Tahlil natijalari bayon etiladi.

Tanlangan mavzu bo'yicha kurs ishining **uchinchi savolida** mavzuga oid asarlarda tadqiq etilayotgan masalani takomillashtirish yuzasidan keltirilgan fikr mulohazalarni umumlashtirgan holda ularga nisbatan talabaning mustaqil qarashlarini bayon etilishi lozimdir. Shuningdek, bugungi kunda mazkur masalalarda amaliyotda uchrayotgan muammolalarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish yuzasidan talaba tomonidan ishlab chiqilgan xulosa va takliflarni ilmiy asoslash lozimdir. Ushbu savol bayonini 8-10 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Namuna

3. Davlat byudjeti daromadlarini boshqarish va uni optimallashtirish yo'nalishlari

Talaba tomonidan bajarilgan kurs ishining mazkur savolida Davlat byudjeti daromadlarini boshqarish va uni optimallashtirish bo'yicha bugungi kunda amalda uchrayotgan muammolar tavsifi keltirilib, ularni bartaraf etish yuzasidan talaba tomonidan ishlab chiqilgan fikr va mulohazalar keltirilishi lozim.

Kurs ishining **xulosa** qismida mavzuni o'rganish davomida talaba tomonidan amalga oshirilgan tahlil jarayonida ishlab chiqilgan ilmiy asoslangan xulosalar va

amaliy tavsiyalar bayon etiladi. Kurs ishining xulosa qismini ko'pi bilan 2-3 varaq hajmda yozish tavsiya etiladi.

Namuna

XULOSA

Mazkur kurs ishi mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Hozirda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida, davlat byudjeti daromadlarini oshirish, ularni boshqarish va nazorat qilish, byudjet balansini bir me'yorda ushlab turish, xarajatlarni aniq maqsadli yo'naltirish rivojlanayotgan mamlakatimiz uchun muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlarga nazar soladigan bo'lsak, bugungi sharoitda, davlat byudjetida barqaror o'sish kuztilayotganini guvohi bo'lsakda, lekin ba'zi muammo va kamchiliklarni ham guvohi bo'lishimiz mumkin.

2.....

3.....

Kurs ishining **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati** qismida kitob (darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma), jurnal, tezislarni to'plami, huquqiy-me'yoriy hujjatlar va internet saytlarining asosiy ma'lumot ko'rsatkichlari (nashriyot nomi va yili, h.k.) ro'yxati aks ettiriladi. Barcha ilmiy ishlarda, shuningdek, kurs ishida ham foydalanilgan ma'lumotlar manbai va adabiyotlar ro'yxatini keltirish majburiy shartlardan biridir.

Namuna

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi: - T.: "O'zbekiston" nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2017 y. -40b.

2. O'zbekiston Respublikasining "Soliq Kodeksi" Rasmiy nashr-O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi - T.: "Adolat", 2008 y. -692b.

3. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet kodeksi". T.: "O'zbekiston" 2013 yil 26 dekabr.

4. *“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.*

5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-№3454-sonli Qarori 2017 yil 29 dekabr.*

6. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2017 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-№2699-sonli Qarori 2016 yil 27 dekabr.*

7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2016 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-№2455-sonli Qarori 2015 yil 22 dekabr.*

8. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-№2270-sonli Qarori 2014 yil 4 dekabr.*

9. *Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 488 b.*

10. *Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 104 b.*

11. *Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 56 b.*

12. *Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini taminlash - yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. - 48 b.*

13. *Mirziyoyev Sh.M. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi maruzasi: Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartibintizom va shaxsiy*

javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.
www.uza.uz.

14. Malikov T.S. Moliya: O'quv qo'llanma /O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus talim vazirligi.-T.: "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2018 y. - 268b.

15. T.S.Malikov, Haydarov.N.H: Davlat byudjeti. O'quv qo'llanma-T.: IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti "IQTISOD-MOLIYA", 2007.

16. Romanovskiy M.V., Vrublevskaya O.V., Finansy. Uchebnik dlya bakalavrov. 2012. - 590 s.

17. Bodi, Zvi, Merton, Robert. Finansy.: Per. s ang. Uch.pos. – Moskva: "Vilyams" 2009. – 592.

18. Malikov T.S., Jalilov Sh.Q. Moliyaviy tizim: Zamonaviy talqin: o'quv uslubiy qo'llanma. - T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2016, - 116 b.

19. Internet saytlari:

www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. www.mf.uz – O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. www.soliq.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi rasmiy sayti. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasining rasmiy sayti. www.sciencedirect.com. – ommabop ilmiy jurnallar sayti. www.reader.elsevier.com. – ommabop ilmiy jurnallar sayti. www.scopus.com. – xalqaro maqola va anjumanlar sayti.

KURS ISHINI RASMIYLASHTIRISHNING

UMUMIY TALABLARI

Tanlangan mavzu bo'yicha bajarilgan kurs ishining to'g'ri rasmiylashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kurs ishi belgilangan talablar doirasida rasmiylashtirilishiga hamda kurs ishida ko'chirmachilik holatiga yo'l qo'yilmasligiga talabanning shaxsan o'zi javobgar hisoblanadi.

Kurs ishi Davlat Ta'lim Standartlarida talab etilganidek, tartibli rasmiylashtirilgan, xatosiz, aniq va tushunarli tilda ravon yozilgan bo'lishi kerak.

Kurs ishi yozish davomida matnda “men” so’zi o’rniga “biz” so’zini yozish tavsiya etiladi.

Kurs ishi elektron tarzda rasmiylashtirilgan bo’lishi shart. Shuningdek, kurs ishi A4 o’lchamdagi oq qog’ozning bir tomonida yozilishi talab qilinadi.

Kurs ishini talaba o’zi ixtiyoriy tanlagan mavzusi bo’yicha ilmiy maqola shaklida ham bajarishi mumkun. (Ilmiy maqola va uning talablari ilovada keltirilgan).

Bo’limlar, jadvallar, rasmlar raqamini va nomlarini ham jadvallar, diagrammalar, rasmlar kompyuterda tayyorlanib, printerda chop etilgan (qog’oz A4 (210*297mm) shaklda) holda kiritilishi mumkin.

Kafedraning tavsiyasiga binoan kurs ishi chet (ingliz, nemis yoki fransuz) tilida bajarilishi mumkin. Chet tilida bajarilgan kurs ishiga davlat tilidagi annotatsiya ilova qilinadi va himoya vaqtida tarjimasi ta’minlanishi lozim.

Kurs ishini yozishda “Times New Roman” shriftda, varaqning chap tarafida 3 sm, pastda 2 sm, tepada 2 sm, o’ngda 1 sm joy qoldirishi qatorlar oralig’i 1,5 interval talab etiladi. Kurs ishining barcha betlari titul betidan oxirgi betigacha tartib bilan raqamlanadi. Birinchi bet titul varag’i hisoblanib, unga raqam qo’yilmaydi, keyingi betga “2” raqami qo’yiladi va hokazo. Tartib raqami betning pastki tomonining o’rtasiga qo’yiladi.

Qismlarning nomlanishi bosh harf bilan yoziladi. Qism ichidagi nomlanishlar xatboshidan kichik harflar bilan yoziladi. Sarlavha oxirida nuqta qo’yilmaydi. Sarlavhaning tagiga chizib yozishga ruxsat etilmaydi. Har bir sarlavhadan oldin raqamlar qo’yiladi va raqamdan so’ng nuqta qo’yiladi. Kirish, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati boshlanishida raqam qo’yilmaydi.

Kurs ishining har bir qismi yangi betdan boshlanadi.

Kirish, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati va asosiy qism savollari bir xilda, varaqning yuqori qismining o’rtasiga yozish tavsiya etiladi.

Namuna

1. Davlat byudjeti daromadlar tizimi va ularning tasniflanishi

.....

.....

.....

.....

.....


Kurs ishida jadval (diagramma, rasm) qo'yilishi matnda bayon qilingan fikrlarni asoslashga xizmat qilishi kerak. Har bir jadval (diagramma, rasm) ma'lumotlari, albatta, tahlil qilinishi talab etiladi.

Tahlil natijalariga asoslangan holda tegishli xulosalar shakllantiriladi.

Rasm, jadval, diagrammalarda tartib raqami va sarlavhasi bo'lishi kerak. Barchasi ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi, tartib raqami yuqorida o'ng tarafda yoziladi. Tartib raqam qo'yilganidan so'ng bitta satr tashlab o'rtada sarlavha yoziladi.

Sarlavha bosh harf bilan boshlanadi. Sarlavhani ostiga chizilmaydi.

Namuna




1- rasm. Davlat byudjeti mablag'larining manbalariga ko'ra guruhlanishi²

Rasm, jadval, diagramma nomi yakunida "Iqtibos" (snoska) beriladi. Snoskada avval muallifning familiyasi, ismi, keyin asar nomi, asar turi (darslik, o'quv qo'llanma, to'plam yoki boshqa shu kabilar), chop etilgan joyi, nashriyot nomi, chop

² Malikov T., Haydarov N. "Davlat byudjeti", O'quv qo'llanma.- T.: "Iqtisod-moliya" nashriyoti, 2007 y.

etilgan yili, asar jami necha varaqdan iborat ekanligi va mazkur jadval bu asarning nechanchi varag'ida berilganligi aniq ko'rsatiladi.

Barcha rasmlar (grafik, chizma, diagramma, fotosurat)larga, "rasm" so'zi ishlatiladi, quyidagi rasmda keltirilganidek. Ilovalarda taqdim etilgan rasmlar bundan mustasno. Agar rasmni burish lozim bo'lsa, uni soat strelkasi bo'ylab burish kerak.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasining 2023 yilda davlat byudjeti daromadlari tarkibi³

Raqamli materiallar jadval ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim. Jadval ma'lumotlari manbasi aniq ko'rsatiladi. Jadval nomi yakunida "Iqtibos" (snoska) beriladi. Snoskada ma'lumotlar olingan manba ko'rsatiladi. Masalan, quyidagi shaklda. Jadval muayyan manbadan olinmay, balki bir qancha ma'lumotlar tahlili natijasida shakllantirilsa, bunda manba sifatida "talaba tomonidan ma'lumotlari tahlili asosida tayyorlandi" deb yoziladi va qaysi ma'lumotlar tahlil qilinganligi ko'rsatiladi. Jadval internet saytlari ma'lumotlaridan olingan bo'lsa, sayt sahifasiga havola aniq ko'rsatiladi. Masalan, <http://mf.uz/index.php>.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi PQ-3454-sonli Qarori asosida talaba tomonidan tuzilgan.

**2021-2023 yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat byudjeti
daromadlari tarkibining tahlili⁴**

№	Ko'rsatkichlar	2021 yil		2022 yil		2023 yil	
		mlrd. so'm	salmog'i %	mlrd. so'm	salmog'i %	mlrd. so'm	salmog'i %
	Davlat maqsadli jamg'armalaridan tashqari jami daromadlar	40505,8	100	44 469,6	100	62 229,5	100
1.	To'g'ri soliqlar	9338,5	23,0	10 674,2	24,0	12 805,4	20,6
2.	Egri soliqlar	22298,1	55,0	24 285,4	54,6	33 404,3	53,6
3.	Mol-mulk solig'i va resurs to'lovlari	5806,5	14,3	6 049,5	13,6	9 714,5	15,7
4.	Yuqori foydaga solinadigan soliq	390,2	1,1	723,2	1,6	1 367,7	2,2
5.	Boshqa daromadlar	2672,5	6,6	2 737,3	6,2	4 937,6	7,9

Jadval grafalarining sarlavhalari bosh harflar bilan, sarlavhachalar esa, agar ular sarlavha bilan bitta gapni tashkil etsa, kichik harflar bilan, agar ular mustaqil bo'lsa, katta harflar bilan boshlanishi kerak. Jadval bosh qismini diagonal bo'yicha bo'lish mumkin emas.

Ko'plab grafalarga ega bo'lgan jadvalni qismlarga bo'lish va bir qismni ikkinchi qismdan keyin joylashtirishga ruxsat etiladi. Bo'limlar doirasidagi jadvallar izchil, ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan: "1-jadval", "2-jadval" va h.k.

Agar jadval xajmi bir betddan oshiq bo'lsa, bu kabi jadvallarni ilovada taqdim etish lozim.

Matndagi manbalarga iqtibos (Iqtibos)larni satr osti eslatmalarida keltirish lozim. Iqtibos har bir betda arab raqamida ketma-ket tartib bilan keltirilishi lozim.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2455, PQ-2699, PQ-3454-sonli Qarorlari asosida talaba tomonidan tuzilgan. (<https://www.mf.uz/deyatelnost/deyatelnost1/gosudarstvennyj-byudzheth.html>)

Kurs ishini yozish davomida talaba tomonidan iqtibos qu'yidagi holatlarda keltiriladi:

- hujjat va ta'rifni tasdiqlash uchun iqtibos keltirilganda;
- zamonaviy adabiyotlar va birlamchi manbalar bo'yicha iqtibos keltirilganda;
- adabiyotlardan va boshqa manbalardan biror muammo, xulosa yoki takliflardan iqtibos keltirilganda;
- davlat arboblari, olimlar va mutaxassislar fikrlaridan iqtibos keltirilganda;
- statistik ma'lumotlar va to'plamlardan iqtibos keltirilganda;
- me'yoriy-huquqiy hujjatlardan iqtibos keltirilganda va boshqa holatlarda.

Illustratsiyalarga qilingan havolalar sarlavhaning oxirgi so'ziga qo'yiladi. Har bir ilova yangi betning o'ng yuqori burchagida "Ilova" so'zi bilan boshlanadi. Agar kurs ishida bittadan ko'p ilova bo'lsa, ular ketma-ket arab raqamlari bilan belgilanadi. Masalan, "1-ilova", "2-ilova" va h.k. Ilovalarni alohida rasmiylashtirganda, titul varag'ida kurs ishi mavzusining nomi ostida katta harflar bilan "ILOVALAR" so'zi yoziladi.

KURS ISHIGA RAHBARLIK QILISH

Kurs ishiga umumiy metodik rahbarlik mazkur kurs ishi tegishli bo'lgan fandan dars mashg'ulotlarini olib borayotgan professor-o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi va kurs ishi bo'yicha belgilangan ish yuklamasi hajmi ham ularning yuklamasida aks ettiriladi.

- talaba va magistrga kurs ishini bajarishda bevosita rahbarlik kiladi;
- rahbar kurs ishining rejasini talaba va magistr bilan birgalikda tuzadi va maqsadini aniqlab, talaba va magistrning ijodiy izlanishlarini mazkur rejaga muvofiqlashtirishga yordam beradi;
- talaba va magistr bilan birgalikda ilmiy-tadqiqot usullarini aniqlaydi;
- rahbar talaba va magistr bilan birgalikda kurs ishining bajarilish jarayonini tahlil qiladi, u tomonidan ishlatiladigan ilmiy atamalar, shartli belgilar va simvollarning qo'llanilish tartibiga rioya qilinishini nazorat qilib boradi.

Kurs ishlari davlat standartlari asosida tayyorlanadi va bu talaba va magistrning kelgusida ilmiy ishlarini bajarish malaka va ko'nikmalarining to'la shakllanishiga yordam beradi.

Rahbarlar tomonidan ko'rib chiqilgan va yozma ravishda xulosalangan kurs ishlari semestrda imtihonlardan 10 kun oldin kafedraga topshiriladi. Kafedra mudiri kurs ishini taqriz olishi uchun kafedraning dotsent, katta o'qituvchi yoki o'qituvchiga topshiradi.

Taqrizchining taqrizi erkin shaklda tayyorlanadi, ammo unda, albatta: 1) ishning afzallik jihatlari; 2) xatosi va boshqa kamchiliklari; 3) ishning qo'yilgan talablarga mosligi; 4) himoyaga qo'yilishi yoki qo'yilmasligi ko'rsatib o'tiladi.

Taqrizchi tomonidan ijobiy baholangan kurs ishlari kafedrada himoya qilishga tavsiya etiladi. Dekanat tomonidan belgilangan muddatda talaba va magistrlar kurs ishini ochiq himoya qiladilar.

Ilmiy rahbarning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- kurs ishi yozish bo'yicha talaba va magistrarga mavzularni va vazifalarni berish;
- talaba va magistrga kurs ishi tuzilishi va rejasini ishlab chiqishda maslahat berish;
- talaba va magistrga mavzu bo'yicha asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni, ma'lumotlarni tanlashda maslahat berish;
- talaba va magistrga tadqiqot ob'ekti va doirasini, ob'ekt faoliyatini o'rganish, ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish metodlarini aniqlashda maslahatlar berish.

Ilmiy rahbar talaba va magistr tashabbusini turli yo'llar bilan rivojlantirishga va mustaqil ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishiga maslahatlar beradi.

Ilmiy rahbarning kurs ishi yozish masalasi bo'yicha maslahatlar berishi ilmiy rahbar tomonidan belgilangan va kafedra tomonidan tasdiqlangan muddatlarda olib boriladi.

Ilmiy rahbar, unga taqdim qilingan kurs ishini tekshirib, o'z mulohazalarini bildiradi va ishni qaysi yo'nalishda o'zgartirish va to'ldirish kerakligi to'g'risida maslahat beradi.

Yozib tugatilgan kurs ishi belgilangan muddatda ilmiy rahbarga topshiriladi. Ilmiy rahbar kurs ishini tekshirib chiqadi va uni himoyaga ruxsat berish to'g'risida o'z fikrini bildiradi. Ilmiy rahbar kurs ishini belgilangan tartiblar bajarilmaganda qabul qilmasligi mumkin.

KURS ISHINI HIMOYA QILISH TARTIBI

Kurs ishi talaba tomonidan belgilangan muddatlarda tayyorlanib, himoya qilish uchun kafedraga topshiriladi. Kotiba ushbu kurs ishini yoki mavzu bo'yicha chop etilgan maqolani ro'yxatdan o'tkazib, kurs ishi titul varag'iga ro'yxatdan o'tkazilgan sana va ro'yxat tartib raqamini yozadi. So'ngra talabaning kurs ishisini ilmiy rahbariga tekshirib, taqriz yozish uchun taqdim etadi.

Ilmiy rahbar kurs ishini ro'yxatdan o'tgan sanadan boshlab bir hafta ichida, kurs ishi talab darajasida bajarilganligiga ishonch bildirgandan so'ng, ishni o'z taqrizi (4-ilova) bilan birga kafedraga taqdim etadi. Ilmiy rahbar tomonidan taqdim etilgan taqrizda talabaning faolligi, mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifasi, qabul qilingan qarorlardagi yangiliklar, keltirilgan ma'lumotlar tahlili, chiqarilgan xulosa va takliflarning asoslanganligi va kurs ishining boshqa ijobiy tomonlari tavsiflanadi. Shu bilan birga, xato va kamchiliklari ham ko'rsatiladi. Natijada, taqriz oxirida xulosa qilinadi, ya'ni kurs ishi yoki mavzu bo'yicha chop etilgan ilmiy maqolani himoyaga qo'yilishi yoki qo'yilmasligi aniq ko'rsatib o'tiladi. Bajarilgan kurs ishi yoki mavzu bo'yicha chop etilgan maqola kafedraga taqdim etilganida ilmiy rahbar belgilangan tartibda ishga xulosa yozishi, himoyaga tavsiya etishi yoki etmasligi aniq ko'rsatilishi lozim. Ilmiy maqola jurnalda chop etilganligi va komissiyaga taqdim etilishi uni a'lo bahoga baholanishiga asos bo'ladi.

Dekanat tomonidan kafedra bilan kelishilgan holda kurs ishlarini topshirish va himoya qilish reja jadvali ishlab chiqiladi va kurs ishini topshirish va himoya qilish muddatlari kafedra mudiri nazorati ostida o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Kurs ishida qo'pol bo'lmagan xato va kamchiliklar bo'lsa-yu, u himoyaga tavsiya etilsa, talaba ko'rsatilgan xato-kamchiliklarni asoslash yoki to'g'rilash uchun kurs ishi himoyasigacha tayyorlanishi kerak. Agarda kurs ishida xatokamchiliklar ko'p bo'lsa, ularni bartaraf etgandan so'ng, himoyaga tavsiya etilishi ko'rsatilgan bo'lib, u holda xato va kamchiliklar bartaraf etilgandan so'ng, ikkinchi marta yana himoyaga tavsiya etish taqrizi yoziladi. Agarda talaba sababsiz ravishda kurs ishini o'z vaqtida topshirmasa, kamchiliklar to'liq bartaraf etilmasa, u holda ilmiy rahbar "kurs ishi himoyaga qo'yilmaydi" deb yozib xulosa beradi.

Taqriz yozilgan kurs ishini topshirilgan kun bilan kafedrada ro'yxatdan o'tkazishi kerak. Kurs ishlarini ro'yxatga olish kitobida har bir guruhni alohida betga rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Kurs ishini himoya qilish kuni va himoyada qatnashuvchi komissiya tarkibi kafedra majlisida belgilab beriladi. Kurs ishi himoyasida qatnashuvchi komissiya tarkibi 3-5 ta a'zodan iborat bo'ladi. Kurs ishini himoyasida albatta, komissiya tarkibidan kamida 3 ta a'zosi bo'lishi talab etiladi.

Har bir talaba uchun kurs ishi himoyasi 15-20 daqiqa (10 daqiqagacha talaba ma'ruzasi, 5-10 daqiqa savol-javob) davom etadi. Talaba o'z ma'ruzasida mavzu to'g'risida qisqacha tushuncha berishi, ya'ni mavzuning dolzarbligi, muammosi, xulosalari haqida to'xtalishi kerak.

Talaba o'z ma'ruzasini "Microcoff Office PowerPoint" da taqdim etishi zarur. Shuningdek, taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar haqida ham alohida to'xtalinadi va o'z fikrlarini bayon etadi. Himoyadan so'ng, komissiya a'zolari yopiq majlis o'tkazib, talabalarning kurs ishini baholash bo'yicha aniq qarorini qabul qiladi.

Komissiya a'zolari qo'yidagi mazmundagi qarorlarni qabul qilishi mumkin:

- kurs ishini qimoya qilganligini bildiruvchi baho qo'yilishi mumkin;
- himoyaga kiritilmagan bo'lishi mumkin;
- himoyaga kelmadi bo'lishi mumkin;
- himoyada qoniqarsiz baho olgan bo'lishi mumkin.

KURS ISHINI BAHOLASH MEZONI

Kurs ishi himoyasi samarali adolatli va ob'ektiv tarzda bo'lib o'tishini ta'minlash maqsadida mazkur mezondan foydalaniladi.

Baho	Talabaning bilim darajasi
A'lo (5)	Talaba tomonidan mustaqil xulosa va takliflar ishlab chiqilgan, ijodiy fikrlay olish, mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, aytib bera olish, mustaqil tasavvurga ega bo'lish. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 80-100% javob bera olish. Tadqiqot jarayonida aniqlangan muammolar bo'yicha aniq echimini taqdim etish. Belgilangan mavzu bo'yicha chop etilgan ilmiy maqola ijobiy taqrizga ega bo'lganida a'lo bahoga baholanadi
Yaxshi (4)	Talaba tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqilgan. Mustaqil mushohada yurita olish, olgan bilimlarini amalda qo'llay olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib berish va mustaqil tasavvurga ega bo'lish. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 60-90% javob bera olish.
Qoniqarli (3)	Talaba tomonidan tanlangan mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalarini bayon qila olish, mohiyatini tushunish, bilish, aytib bera olish, tasavvurga ega bo'lish. Olib borilgan izlanishlar asosida xulosaga ega bo'lish. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 30-60% javob bera olish.
Qoniqarsiz (2)	Aniq tasavvurga ega bo'lmaslik, tanlangan mavzuni bilmaslik, tushunmaslik. Yoki kurs ishida ko'chirmachilikka yo'l qo'yilishi. Kurs ishi himoyasi komissiyasi a'zolari savollariga 25% va undan kamiga javob berishi.

KURS ISHI MAVZULARI NAMUNALARI

1. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda davlat byudjetining rolini oshirish.
2. Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga berilayotgan e'tiborni kuchaytirish masalalari.
3. Aholining bo'sh turgan mablag'larini tijorat banklariga jalb etish masalalari.
4. Aholining ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashda iste'mol kreditlarining rolini oshirish.
5. Aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy boshqaruv samaradorligini oshirish.

6. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlarning ta'siri tahlili.

7. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini moliyalashtirishga xorijiy kapitalni jalb etish masalalari

8. Aksiyadorlik jamiyatlari hamda aksiyadorlik moliyalashtirishning xususiyatlari.

9. Aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini takomillashtirish yo'llari.

10. Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash.

11. Aksiyadorlik jamiyatlarida pul mablag'lari samaradorligini tahlil qilish va baholash.

12. Aksiyadorlik jamiyatlarida qimmatli qog'ozlar emissiyasi orqali investitsion faoliyatni rivojlantirish.

13. Aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy faoliyati samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirish.

14. Aksiyalar bozor qiymatini maksimallashtirish yo'llari.

15. Aksiyalarni ommaviy joylashtirish operatsiyalarini tashkil etish va o'tkazish.

16. Bank kreditlarining foiz stavkalari va ularni kichik biznesga ta'siri xususida

17. Bank xizmatlari bozorini rivojlantirish.

18. Banklar va sug'urta tashkilotlari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishning zamonaviy yo'llari.

19. Biznesni baholash metodlarini takomillashtirish yo'llari.

20. Biznesni shakllantirishda investitsiyalarning roli.

21. Biznesning tashkiliy shakllari va ularning moliyaviy qarorlar qabul qilishga ta'siri.

22. Bozor indeksleri va indekslash strategiyasini samarali shakllantirish.

23. Bozor intizomi: kompaniyalarning "yutib yuborilishi" va uning moliyaviy natijalari.

24. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion strategiyani shakllantirishning ahamiyati.

25. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korporativ birlashishlar va qo'shib olishlar.

26. Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning tashkiliy-uslubiy asoslari.

27. Byudjet-soliq siyosati barqarorligini ta'minlash yo'nalishlari.

28. Byudjet-soliq va investitsiya siyosati hisobiga korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari.

29. Chet el investitsiyalari harakatini soliq mehanizmi orqali tartibga solish masalalari.

30. Davlat aktivlarini boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.

31. Davlat byudjeti daromadlari tarkibi tahlili va uni optimallashtirish yo'nalishlari.

32. Davlat byudjetining ijtimoiy soha xarajatlarini samarali tashkil etish.

33. Davlat dasturlari orqali real sektor korxonalarini rivojlantirish masalalari.

34. Davlat ijroiya organlari va moliyaviy soha boshqaruvi.

35. Davlat ishtirokidagi korxonalarda moliyaviy boshqaruv xususiyatlari va uni takomillashtirish yo'llari.

36. Davlat maqsadli jamg'armalari faoliyatini rivojlantirish masalalari.

37. Davlat moliya siyosatining strategik va taktik masalalari.

38. Davlat moliya tizimining innovatsion rivojlantirish istiqbollari.

39. Davlat moliyaviy infratuzilmasining asosiy elementlari.

40. Davlat moliyaviy institutlarining moliya bozoridagi faoliyati.

41. Davlat qarzlari boshqarish usullari.

42. Davlat qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish masalalari.

43. Davlat va nodavlat moliyaviy muassasalar faoliyatini rivojlantirish masalalari.

44. Davlat va nodavlat moliyaviy muassasalarning iqtisodiyotda tutgan o'rni.

45. Davlat xaridining amalga oshirilish tartibi va uni takomillashtirish yo'llari

46. Davlatning moliya bozorini tartibga solishdagi roli.

